

OLIIY TA'LIM TALABALARIDA KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xudaybergenova Nawrızbiyke Qanat qızı

(Nukus davlat Pedagogika instituti)

**Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich ta'lim) 2-bosqich tayanch
doktoranti, xudaybergenovanawrızbiyke@gmail.com; +998907012919)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15123288>

Annotatsiya: Bu maqolada oliy ta'lim talabalarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, uning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish o'zaro faol munosabatlarga tez kirisha olish va amaliy ta'lim jarayonida uni o'rinli qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirish haqida aytib o'tilgan. Bu jarayonda ular bilan bevosita ishlaydigan o'qituvchidagi kreativlik darajasining qanday bo'lishi kerakligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, kreativlik, ko'nikma, qobiliyat, kompetentlik, ijodkorlik, fikrlash, sezgirlik.

Аннотация: В данной статье говорится о формировании навыков творческого мышления у студентов высших учебных заведений, развитии их творческих способностей, умении быстро вступать в активные отношения и умении правильно использовать их в процессе практического обучения. В этом процессе было показано, каким должен быть уровень творчества преподавателя, работающего непосредственно с ними.

Ключевые слова: высшее образование, креативность, умение, способность, компетентность, креативность, мышление, чувствительность.

Abstract: This article talks about the formation of creative thinking skills in higher education students, the development of their creative abilities, the ability to quickly enter into active relationships and the ability to use them appropriately in the process of practical education. In this process, it has been shown how the level of creativity of the teacher working directly with them should be.

Key words: higher education, creativity, skill, ability, competence, creativity, thinking, sensitivity.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 8-oktyabr 2019- yil "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi"da PF-5847 sonli farmoni qabul qilindi [1].

2020-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim, to'g'risida" gi O'RQ 637-sonli qonunida ham ta'lim sifatini yaxshilash, talabalarining turli shakllarda ta'lim olishi (ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (masofaviy, sirtqi, kechki); dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ishi; katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasidagi kadrlarni tayyorlash) belgilab qo'yilgan [2].


Ta'lim jarayoniga kreativ yondashuv asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarni rivojlantirishning zarurligi o'zaro faol munosabatlar ta'sirida rivojlanadigan ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim muhiti, o'qitish shart-sharoitlari va metodlarining interfaol xarakter kasb etishini ta'minlashni talab qiladi. Ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlari bo'yicha buyuk sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Umar Hayyom, Sa'diy Sheroziy, Mirzo Ulug'bek, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar birinchilardan bo'lib ta'lim metodlari orqali ilmiy asoslab berishgan.

Bundan tashqari, Amerika psixologi Abraham Maslou kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko'radi, ya'ni barcha insonlardagi tug'ma qobiliyat, lekin hayoti davomida ma'lum ijtimoiy to'siqlar natijasida yo'qolib ketadi deb hisoblaydi [3;58]. N.F.Talizinaning "Formation of cognitive activity of junior schoolchildren" asarida har bir o'qituvchi, real pedagogik jarayonni qurishdan oldin, o'quv jarayoni haqida texnologik darajada taqdim qilingan bilimlar tizimiga ega bo'lishi lozim [4;103].

Bugungi kunda pedagogik atamalar lug'atida kreativ, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyatlar, kreativ kompetentlik terminlarini juda ko'p uchratamiz. Kreativlik – (lot. «creare»; ingl. creativity- «yaratish», «bunyod qilish») – bu ijodiy qobiliyatlik darajasi, shaxsning barqaror sifati hisoblanadigan ijod qilishga bo'lgan qobiliyati bo'lib, u kreativ tafakkur bilan bog'liq. Kreativ tafakkur – bu shaxsning o'z oldida turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o'z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaraliroq yo'llarini topish qobiliyatidir. Ya'ni kreativlik, asosan, boshqalarga o'xshamagan g'oyalarni o'ylab topish, an'ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo'llarini bilish hisoblanadi. Kreativlik insondagi ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga asos yaratadigan individual sifatlarining hamda fikrlash qobiliyatlarining birligidan iborat bo'ladi. Kreativ kompetentlik (ing. «create» yaratuvchanlik, ijodkorlik). Kompetentlikning bu turi pedagogning yangilik yaratish, ijodkorlik va tashkil etish singari ko'nikmalarga ega bo'lishi bilan bog'liq. Kreativlik faqatgina yangi g'oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning turmush tarzi va ma'naviyatini yuksaltirish uchun ham katta ahamiyatga ega. Bir qator pedagogik adabiyotlar tahlili va keyingi yillarda ilmiy izlanishlar olib borilgan tadqiqot ishlarida ham kreativ, pedagogik kreativlik, kreativ qobiliyatlar, kreativ kompetentlik tushunchalariga atroflicha izoh berib o'tilgan. Kreativ yondashuv tushunchasining ilmiy, falsafiy, adabiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko'plab ta'riflarini keltirish mumkin.

Adabiyotlar tahlili asosida aytishimiz mumkinki, kreativlik termini Angliya Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'lgan bo'lib, bunda kreativlikning intellekt bilan bog'liqlik masalalari hamda kreativlikning psixologik jihatlari va uning har bir shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqligi o'rganilgan. M.N.Gnatko kreativlikning mexanizmlarini ikkita turga ajratib tahlil qilgan.

Bular:



Kreativlik pedagoglarda oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi. Gnoseologik, aksiologik va kreativ texnologiyalar (taʼlimning texnologik vositalari)ni faol ravishda taʼlim jarayonida qoʻllash kreativlik potensialini rivojlantirib borishga zamin yaratadi. Bu esa davrning ijtimoiy talabi boʻlib, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda pedagoglardan oʻz ustida ishlashini, oʻzini kreativ boyitib borishini, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar boʻlib, ularni oʻz faoliyatiga singdirib borishini talab etadi. B.X.Xodjayev ilmiy izlanishlarida oʻquvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik taʼminot vositasida rivojlantirish oʻqituvchining yangiliklarga boʻlgan intilishi, ularni oʻzlashtirish va oʻzining pedagogik faoliyatida foydalana olish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni yengib oʻtish, innovatsion yangiliklarni oʻzining faoliyatida faol, ijodkorlik bilan qoʻllay olish, oʻzining mualliflik gʻoyalariga ega boʻlish hamda turli pedagogik vaziyatlarda ijobiy yechimlarni everistik yoʻl topa olish qobiliyatlari bilan bogʻliq boʻlgan kreativ kompetentlikga ega boʻlishni talab etadi degan fikrni ilgari suradi. [5;84]

“Mustaqil taʼlim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud boʻlishi ham talab etiladi”. Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega boʻlishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va oʻzaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali taʼminlanadi. Pedagog oʻz-oʻzidan ijodkor boʻlib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati maʼlum vaqt ichida izchil oʻqib-oʻrganish, oʻz ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

Talabalarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash koʻnikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash koʻnikmalarini baholashda qoʻllaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.


Kreativlik -shaxsning yaratuvchanlik, ijodkor-lik xislatlari bilan bogʻliq koʻnikmalar majmui sifatida namoyon boʻladi. Kreativlik oʻz ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan koʻra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Talabalarning ijodkorligi va kreativligi tafakkur va muloqot qilishlarida, hissiyot va tuygʻularida, turli faoliyat turlarida oʻz aksini topgan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, talabalarda kreativlikni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri ularni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yoʻnaltirishdan iborat. Pedagoglar tomonidan ishlab chiqilayotgan topshiriq va vazifalarni yaratishda kreativ yondashib, talabalarning tanlangan mutaxassisliklari yuzasidan oʻquv materiallarining

g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil tarzda bayon etilishi, o'quv axborotlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikligini inobatga olish zarur. Bundan tashqari talabalarga berilayotgan topshiriqlar ularning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy va aniq maqsadga yo'naltirilganligi hamda talabalarning ehtiyoj va qiziqishlariga muvofiq tayyorlanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida
2. 2020-yil 23-sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim, to'g'risida" gi O'RQ 637-sonli qonuni
3. Baybayeva M. X. "Ta'lim muassasalarida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatidagi roli" Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. –2022. –T. 3. –No. 5. –S. 59-66.
4. Talizina N.F. Formation of cognitive activity of junior schoolchildren. Book. For the teacher. - M.: Education, 1988.- 175 p.
5. B.X.Xodjaev "Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish": Ped. fan. dok. diss. – Toshkent, 2016. – 260 b.



INNOVATIVE
ACADEMY